

38.1
G 17

VL. GALKIN, E.E. SHESHKO

*TRANSPORT
MASHINALARI*



KONCHILIK
MASHINASOZLIGI

39.1
G 17

V.I. GALKIN, E.E. SHESHKO

TRANSPORT MASHINALARI

Rossiya Fedyeratsiyasi oliy o'quv yurtlari ta'limi o'quv-metodik birlashmasi tomonidan konchilik ishlari sohasida o'qitiladigan talabalar uchun «Konchilik mashinalari va jihozlari» mutaxassisligi va «Texnologik mashina va jihozlari» yo'nalishi bo'yicha tayyorlov kurslari uchun darslik sifatida kiritilgan

DARSLIK
V.I. GALKIN, E.E. SHESHKO
TRANSPORT MASHINALARI

Tarjimoni. : dots. Atakulov L.N.
Katta o'qituvchi. Haydarov Sh.B.
assistent. Qurbonov O.M.

Taqrizchilar: Zaripov Sh.U.NKMK markaziy loyihalash buyorisi
boshlig'i

dots.Maxmudov A.M.NDKI «Konchilik elektr
mexanikasi» kafedrası dotsenti:

© Moskva izdatelstvo "Gornaya kniga", 2010

NDKI Axborot-resurs markazi

INV No 595/cb 4e

KIRISH QISMI

Sanoat korxonalarining yildan yilga minyeral xom-ashyolarga bo'lgan talabining oshishi, konchilik sanoatining modyernizatsiyalashtirilishi va korxonalarning texnik jihatdan qayta ta'minlanishi, kompleksli mexanizatsiyalashning va konchilik ishlarini olib borishda konsentratsiyalashuvda va intensivlashtirishda ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishning keng qo'llanishi bilan amalga oshiriladi.

Foydali qazilmalarning qazib olinishi va istemolchining manziliga yetqazib berilishi yoki foydali qazilmalarini qazib olish texnologiyalari qayta ishlashning asosiy jarayonlari natijasida transport mashinalariga bo'lgan zaruratning oshishi texnologik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Konchilik sanoatida ishlatiladigan transport vositalari Yuqori ishlab chiqarish unumdorligiga ega bo'lishi, quvvat bilan ta'minlangan, chidamli bo'lishi va foydali qazilmalarni aytarli darajadagi uzoqlikdagi masofaga uzliksiz etkazilishini ta'minlab berishi kerak.

Foydali qazilmalarning tannarxining 50% (chuqur karyerlarda 70%) ni transport tashish ishlari xarajatlari tashkil etadi. Shu tufayli tashish uchun ketadigan enyergiya tejamiy kamayishi, shuningdek transportlarning atrof muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yangi texnik darajadagi mashinalarning tayyorlanishi va loyihalashtirishda innovatsion ishlanmalarning qo'llanishiga va o'z navbatida transport tannarxining pasayishiga hamda ishlatishdagi xavfsizlikni oshishiga olib keladi.

SHu bilan konchilik sanoatida transport vositalarining asosiy o'ringa egaligi ko'rinadi, «Transport mashinalari» kursi esa kon injenyer-mexaniklarini tayyorlanishida asos bo'ladi. «Transport mashinalari» ko'rsini urganishdan maqsad – nazariy bilimlarga ega bo'lish, transport mashina va majmualarni hisoblash va ishlatish (ochiq va yer-osti), ularsiz Yuqori ishlab chiqarish samaradorlikka ega bo'lgan zamonaviy transport vositalarini samarali qo'llash va asoslangan texnik qarorlar qabul qilish imkoni bo'lmaydi. Darslikda maxalliy va dunyo ilmlari nazariyasi va kon-transport mashinalari hisobi va nazariyasi bayon etilgan. Konchilik sanoati transportlarini urganish ko'rsi asoschisi akademik A.M. Tyerpigorev hisoblanadi, 1901 yilda «Yetqazib berish» (Dostavka) kitobini chop etgan. Keyinchalik mahalliy konchilik transporti maktabini AN SSSR korr. a'zosi A.O.Spivakovskiy va akad. AN USSR N.S.Polyakov boshqarib kelishgan.

Konchilik sanoati transport mashinalari nazariyasining Yuksalishiga quyidagi yetuk olimlar, texnika fanlari doktorlari, professorlardan A.V. Andreev, M.V. Vasilev, A.V. Evnevich, B.N. Kuznetsov, M.G. Potapov, A.A. Rengevich, G.I. Solod, N.V. Tixonov, B.V. Fadeev, L.G. SHaxmeyster, L.I. CHugreev, I.G. SHtokman, A.A. Kuleshov, V.G. Dmitriev, texnika fanlari nomzodlari, professorlardan I.V. Zapenin, V.A. Dyakov, YU.S. Puxov, texnika fanlar nomzodi

M.A. Kotov va ko'plab boshqa olimlar o'z xissalarini qo'shgan. Mualliflar «Konchilik mashinalari va konchilik elektromexanikasi» kafedrasiga o'zining chuqur minnatdorchiligini izhor etadi, kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor YU.D. Krasnikovga (Moskva davlat ochiq univyersiteti) va «Kon va geologik qidiruv ishlari mexanizatsiyasi va avtomatlashtirish» kafedrasida texnika fanlari doktori prof. YU.A. YAxontovga kitobning taqrizi bo'yicha katta xizmatlari va qimmatli fikrlari uchun o'z minnatdorchiligini izhor qiladi.

I BOB. UMUMIY MA'LUMOTLAR. KONCHILIK TRANSPORT MASHINALARI NAZARIYASI

1.1 Karyer transport mashinalari haqida umumiy ma'lumotlar

1.1.1. Karyer transport mashinalari turlari. Transport mashinalarini klassifikatsiyalash.

Karyer transport mashinalari foydali qazilmalar va qoplama tog' jinslarini hamda karyerlardagi asosiy Yuklarni tashishga mo'ljallangan.

Eng ko'p keng qo'llaniladigan transportlardan temir yo'l, avtomobil va konveer transporti hamda ularning aralash qo'llanishidir. Gidravlik transport, arqonli osma yo'lli transport, skipli ko'taruvchi qurilma, kabelli kranlar qo'llaniladi.

Bundan tashqari transport uskunalariga Yuklash, qayta Yuklash, Yukni bo'shatishning mexaniklashtirishda ishlatiladigan jihozlar ham kiradi (pitatellar, me'rlovchilar, to'xtatuvchi va boshqalar).

Yordamchi Yuklar, ya'ni jihozlar, qo'shimcha qismlar, yoqilgi-moylovchi materiallar, portlovchi moddalar va boshqalar avtomobil yoki temir yo'l transporti orqali tashiladi.

Temir yo'l transportlari katta o'lchamdagi kon massivini tashishda rejalashtirish va hajm jixatidan yiliga 20 mln. t. dan 150 mln t. gacha, chuqurligi 250 m gacha va tashish masofasi 5-15 km gacha bo'lgan karyerlar uchun mo'ljallangan.

Avtomobil transporti quyidagi karyerlarda keng qo'llaniladi – kichik va o'rta ishlab chiqarish kuchiga ega karyerlarda (yiliga Yuk aylanmasi 15-20 mln. t.), tashish masofasi 1,3 – 3 km bo'lgan katta karyerlarda (70-100 mln. t), tashish masofasi 5 km gacha bo'lganda (ayrim hollarda undanda ko'prok).

Konveer transportlari keyingi paytda yumshoq tog' jinslaridan (yilida Yuk almashinishi 50-60 mln t va ko'prok) tortib, qoyasimon tog' jinslarida (20-30 mln t Yuk almashinishi) tashish masofasi 4-6 km (ayrim paytlarda 20 km) bo'lgan Karyerlarda samarali qo'llanilmoqda.

Har xil turdagi transportlarning samarali qo'llanishi aniq ko'zlangan va har bir alohida hollarda (yoki kombinatsiyalashgan ko'rinishda) transport turlari iqtisodiy samaradorligi va ekologik maqsadga muvofiqlik kuzda tutilgan har xil yo'llar bilan aniqlanadi. Xizmat ko'rsatishning soddaligiga Karyerlarda bir xil turdagi transportning qo'llanilishi bilan yerishiladi. Lekin bu har doim ham samara bermaydi. SHu sababli qoplama tog' jinslarini tashishda bir turdagi transport tizimidan ko'proq foydalaniladi, foydali qazilmalarni tashishda esa boshqa turlardan. Bundan tashqari ishga tushirish sharoitiga muvofiq kon massasini trassaning uzunligi bo'ylab bir xil turdagi transport mashinalari bilangina tashish emas, balki qayta Yuklash orqali ikki (xatto bir necha) turdagi transport mashinalari bilan tashish to'g'ri bo'ladi. Bunday xolda transport turi kombinatsiyalashgan (avtomobil-temir yo'l, avtomobil-konveerli, avtomobil-skipli va b. k) bo'ladi.

Transport mashinalarini asosiy belgilariga, ya'ni harakatlanish toifasiga asosan sinflarga bo'lish mumkin. Bu toifaga asosan transport mashinalarini

- uzluksiz harakatlanuvchi;
- Yukni uzluksiz oqim orqali Yuklovchi;
- davriy aylanma harakatlanuvchi;

davriy aylanma harakatlanuvchi mashinalar deganda ishning aniq bir xil harakat ketma-ketligi ifodalangan ya'ni kon massasini mashinaga Yuklash, Yuk bilan harakatlanish, Yukni bo'shatish va Yuklash joyigacha Yuksiz harakatlanish (keyin barcha jarayon takrorlanadi) tushuniladi.

Uzliksiz harakatlanuvchi mashinalarga konveerlar (barcha tipi), gidravlik transport uskunalar, ayrim arqonli yo'l(kanatli yo'llar) turlari va boshqalar kiradi. Davriy aylanma harakatlanuvchi mashinalarga temir yo'l tarkibi, avtomobillar, skipli ko'taruvchi moslamalar, kabelli kranlar va boshqalar kiradi. Karyer transport mashinalari sanoat mashinalariga qaraganda bir qator aloxida belgilarga ega.

Birinchidan, Yuklash punktlari, ayrim paytda Yukni bo'shatish punktlari konchilik ishlari fronti izidan borib, o'z holatini doimiy o'zgartirib turadi. Bu holat transport kommunikatsiyasini (temir yo'l izlari yoki avtomobil yo'llarini) yoki jihozlarni (konveer qurilmasi va boshqalar) vaqti vaqti bilan ko'chirib turishni talab qiladi. Vaqtinchalik ko'chiriladigan kommunikatsiya va jihozlar barpo etish ushbu uchastkalardagi mashinalarga qo'shimcha talablarni vujudga keltiradi.


Ikkinchidan, chuqur karyerlarda va tog' tizmali konlarda konchilik ishlarini olib borishda qiyalik yo'llarining mavjudligi, ma'lum transport turlarini talab etadi. Ya'ni tashilayotgan yukning og'irligi, harakatlanish tezligi va x. k. nap inobatga olinadi.

Uchinchidan, karyer transporti tog' jinslarini kovlab olish va qayta ishlash yoki tog' jinslarini bir joyga yigish jarayolarining oraliq bo'g'imi hisoblanadi. Oldingi (kovlash) va keyingi (qayta ishlash) texnologik jarayonlarning o'zaro tashkil etilishini va bog'lanish parametrlarini aniqlaydi. Demak, aralash texnologik jarayonlar bir biriga to'g'ri keladigan va mos mexanizmlari bilan jixozlanishi kerak, ochiq konchilik ishlarini olib borish mexanizmlari sharoitga mos bo'lishi va texnologik jixatdan koniqtirishi kerak. . Bu esa uz navbatida ochik kon ishlar mexanizatsiyasi bir butunligini kondirish maksadida , aralash texnologik jarayonlar uzaro bir biriga mos keladigan texnologik jixozlar bilan mexnizatsiyalangan bulishi kerakligini bildiradi. Undan tashkar, ayrim paytlarda konlarda transport vositalarini ishlash imkoniyatlari samarasini tashilayotgan Yuk xususiyati va trassa parametrlari aniqlab beradi. Bundan tashkari samaradorlik, ayrim xollarda esa karyerlardagi transport mashinalarining ishlash imkoniyati tashilayotgan yukning tarkibiga va trassaning ko'rsatkichlari bilan aniklanadi.

1.1.2. Karyerning bosh loyihasi. Loyihalashtirishning asosiy prinsiplari.

Mo'ljallangan trassani asoslash.

Transport vositalarini karyer ichi va tashqarisida harakatlanishining oxirgi manziligacha, ya'ni Yuk to'kadigan so'nggi punkti, Yuk yig'ish joyi hisoblangan omborxonalar (omborxonalar), maydalash-ayriboshlash (MAF) va maydalash-boyitish fabrikalari (MBF) bizga karyer ichki yo'llari sxemasi xaqida tasavvur beradi va ishlab chiqarish texnologik xususiyatlari hamda karyer bosh loyihasi asosida aniqlanadi. Bosh loyiha karyerning Yuqori qismining masshtabli rejasi hisoblanadi. Bosh loyihada quyidagilar inobatga olinadi: koordinat setkasi, qazish joyi relefi xususiyatlari (Yuqori qatlam belgilari, suv xafzalari, daryolar, o'rmonlar va x.k), foydali qazilma konlari chegaralarini, karyer maydoni, qazilma yig'ish joyi, asosiy va yordachi binolar va inshootlar bilan ishlab chiqarish maydoni, axoli binolari, axoli va ishlab chiqarish transport kommunikatsiyasi (temir yo'l, bekatlar, rels yo'llari, avtoyo'llar), yer osti va ustki inshootlari, obodonchilik xududlari (1.1-rasm).



1.1- rasm. Karyerning bosh loyihasi

Bosh loyihalar masshtabi 1:10000, 1:5000 yoki 1:2000 ni tashkil etadi va u dunyo mamlakatlariga nisbatan ko'zda tutilgan. Bosh loyihada shamol yunalishining tasviri ko'rsatiladi.

Shamol yunalishi tasviri – bu joyning shamol esish tartibi (odatda ko'p yillik ko'rsatkichlari asosida oy, mavsum, yil uchun tuziladi). Bu tasvirda shamol yunalish o'rami maksimal va o'rta shamol tezligi yunalishlari 8 (yoki 16) dan tanlangan masshtabda takrorlanishi ma'nosida vektor ko'rinishida olib qo'yiladi (% hisobida umumiy kuzatiladigan sondan).

Yuqorida joylashgan ob'ektlar majmualarining o'rnatilishi kon ishlarini yuritish texnologiyasiga, foydali qazilmalar navi va konditsiyasiga, kon ishlari tartibiga, karyerning ishlab chiqarish kuchiga, joyning relefiga, tuproq (yer) qiymatiga ta'sir ko'rsatadi. Karyer loyihasi yechimlari va fakt ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki,

Yuqori qatlamda asosiy sarf-harajatlar oʻrnatiladigan ob'ektlar tejamliligini belgilash transport vositasiga bogʻliq boʻladi, yaʼni sarf harajatlar 70-80% ga tenglashadi. Shu nuqtai nazardan ob'ektlarning karyerga maksimal darajada yaqinlashtirilishi samarali hisoblanadi va bir qancha faktlar bilan chegaralanadi.

Birinchidan, bunday joylashuv karyerlarning tashqi kontur chizigʻi, shu bilan birga inshootlarning xizmat qilish muddati, umumiy holatda ustki qatlam ob'ektlarini foydali qazilmalar zaxirasi ustiga oʻrnatilmaydi (aloxida asoʻqli holatdan tashqari) va ular portlash ishlari uchastkalaridan 300-500 m dan kam boʻlmagan masofada boʻlishi shart. SHu bilan birga koʻplab karyerlar ancha-muncha katta xizmat muddatiga ega, tugash konturi holatiga 25-30 yil keladigan yoki topilma izlash ishlarini tugatish bilan va korxonaning qayta taʼmirlashda oʻzining tashqi kontur holatini karyer xizmat muddati davrida bir necha marta oʻzgartirishi (kengaytirilishi) mumkin. Bunday hollarda obektlarning karyer konturi tashqarisida joylashishi Yuk tashish masofasini oʻzoqlashtiradi va karyerga yaqinlashish boshqa joyga koʻchirilganligi bilan asoslanadi va shunday holatlarda qoʻshimcha harajatlarga olib keladi. Ob'ektlarning joylashish faktlari taxlili shuni koʻrsatadiki, ayrim paytlarda Yuklarni tashish masofasini oshib ketishi, ayrim hollarda tashish masofasi qisqartirilishi hisobiga tejash, ob'ektlarni koʻchirishga nisbatan ketgan harajatlarning oshib ketganligini koʻrsatadi.

Ikkinchidan, transport kommunikatsiyasini oʻtqazishda, sanoat maydonlarini va boshqa ob'ektlarni rejalashtirishda yyer ishlari hajmini minimal darajaga uzatish zarur. Karyer qurilishi maydonlarini tanlashda joyning relefi tekis boʻlishi maydon chegaralariga boʻlgan qiyalik 10% dan oshmasligi shart. Yer qatlami qattiqligi boʻyicha chidamli boʻlishi (loyihalangan inshoot ogʻirligiga mos kelishi kerak), suv qatlami darajasi past boʻlishi kerak, maxsus inshootlar oʻrnatilishini, murakkab drenaj va suvliizolyasiya ishlarini olib borilishini istisno etadigan boʻlishi shart. Maydon suvlar bilan tulmasligi kerak.

Uchinchidan, tashqi majmua koʻzlagan elementlarini tashqi transport tarmogʻi elementlariga nisbatan (temir yoʻl magistrali, foydali qazilmalarni olib chiqish uchun avtoyoʻllar) hisobga olinishi kerak.

Toʻrtinchidan, ob'ektlarning joylashtirilishida asosiy faktorlardan biri yyerlarning biologik qiymatini eʼtiborga olishdir. Tashqi majmua ob'ektlari maydon hajmi aytarli kattaroq boʻladi (yigʻish joyi, omborlar, sanoat maydoni), qishloq xoʻjaligi uchun foydali joylarni egallamaslikka intiladi. Ochiq kon ishlari amaliyotida ayrim topilma konlari karyerlar gurixi bilan ishlab chiqiladi. Bunda karyerlar bir-biridan 5-10 km ga, baʼzan 10-20 km ga uzoqlashadi. Bunday sharoitda barcha karyerlar uchun umumiy tashqi inshootlar qurish maqsadga muvoffiq boʻladi (yigʻish joyi, maydalash-saralash va boyitish fabrikalari, yordamchi majmualar), bu esa harajatni qisqarishiga va ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga olib keladi.

Umumiy ob'ekt topilma konlari aloxida obektlarining ishlab chiqarish kuchidan kelib chiqib tanlanadi (Yuk oqimi teskari proporsional).

Beshinchidan, ishlab chiqarish maydonini joylashtirishda uning turi va nimaga muljanlanganligini inobatga olish kerak. Agar sanoat maydoni maydalab-boyituvchi, maydalab-saralovchi fabrikasi, foydali qazilmalar omborxonalari, ta'mirlash majmualari, ma'muriy xo'jalik kombinati va yordam beruvchi inshootlarni o'z tarkibiga oladigan bo'lsa, ularning joylashishi asosan transport talablariga javob berishi kerak.

Ishlab chiqarish ta'mirlash maydonlarida, ma'muriy xo'jalik kombinati va yordam beruvchi inshoot komplekslari mexnatkashlarga sanitar-xo'jalik xizmat qilish vazifasini o'taydi. Sanoat maydonlarining kengliklarini qisqartirishda transport va injenyer kommunikatsiyasini uzunligini har doim ishlab chiqarish binolarini va inshootlarini blok shaklida qurish tavsiya etiladi, bu ularning narxi kamayishiga olib keladi.

Bloklarning quyidagi turlari mavjud:

1. Xo'jalik ta'mirlash blogi, tarkibiga mexanik va elektromexanik ustaxonalar kiradi.

2. Xo'jalik omborxonalar blogi, o'z tarkibiga qo'shimcha zaxira qismlar, materiallar va anjomlarni oladi.

Ikkala bloklar ham bir qavatli sanoat binolaridan iborat, ularning ichida talabga javob beradigan temir yo'llari joylashgan. Bloklarga kirishda ochiq maydonlar joylashgan. Anjomlarni saqlash uchun ko'taradigan jihozlari bilan taminlangan. Xizmat xonalari blogining antresollar bilan ta'minlangan.

3. Ma'muriy-xo'jalik bloki, o'z tarkibiga adminstrativ binoni, dispetchyer punktini, ximik laboratoriyalarni, sog'lomlashtirish punktini, oshxonalarini kiritadi.

4. Temir yo'l xo'jalik bloki, o'z tarkibigi lokomotiv va vagon depolari va boshqalarni kiritadi.

5. Avtomobil xo'jaligi blokiga, avtosamosvallar saqlash maydonchasi, tuzatish va texnik xazmat qilish, xo'jalik va yo'l mashinalar garajlari kiradi.

6. Foydali qazilmalar omborxonai.

Ish joyiga yetib kelish vaqtini kamaytirish maqsadida ishchilarning turar joylari, har doim tashkilotdan 1—3 km masofada joylashgan bo'ladi. SHu maqsadda keyingi axoli punktida yashovchi ishchilar ham, ishlab chiqarish maydonlariga va kar'yerlarga o'z vaqtida etib kelishga intiladi. YAshash punktlarini qurishda shamol yunalishiga katta e'tibor berish kerak, chunki axoli shamol kesadigan yunalishida joylashishi mumkin emas. Ko'p hollarda, katta kar'yerlarda ishlagan ishchilar kichik qishloqlarda emas, balki sharoiti yaxshi shaharlarda yashash xoxishini bildiradi, bu kon ishchilarining turmush sharoitlarini yaxshilashga olib keladi. Ishchilarni ishga tashish 10—20 km masofadan amalga oshiriladi, ayrim hollarda, ko'proq ham

bo'lishi mumkin. Katta tashkilotlarda portlash ishlari bir nechta va kuchli bo'lishini inobatga olib, tashkilotlarga yaqin masofada yashash joylarini qurilishi qat'iyon man etiladi. Tashqi majmua obektlari injenyer kommunikatsiyasi tizimlari va transport tarmoqlari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Bosh rejani loyihalashtirilishida ob'ektlarning ratsional joylashishi, transport kommunikatsiyasi bilan taminlanishi sxemasi, enyergiya ta'minoti tizimi bilan, suv taminoti va boshqa xizmatlar bilan ta'minlash sxemasini tuzish birinchi darajali maqsadga kiradi. Umumiy transport tizimi, injenyer kommunikatsiyalarini, turmush va madaniy ob'ektlarini, xo'jalik omborxonalarni va boshqa shu kabi ob'ektlarni sanoat korxonalaridan ko'chirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Karyerning bosh rejasini loyihalashtirilishida me'moriy birlik va sanoat xududining tashkil qilinishida sanoat estetikasi talablarini inobatga olgan xolda, rejaviy kelishuvga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ustki qatlam majmuasi ob'ektlari ichki karyer yo'llari transport trassasini aniqlab beradi (yo'lning o'z o'qi atrofiga nisbatan bo'shliqda joylashishi). Gorizontal tekislikdagi trassaning loyihalashtirilishi yo'l plani, vertikal tekislikda esa - yo'l profili deyiladi (yon tomon ko'rinishi). Aytarli barcha karyer yo'llari ko'plab sonli turlicha profil belgilarida ko'rsatilgan. Transport hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun bir necha yonma-yon profil bir shartli profil belgisi bilan izoxlash mumkin.

$$i_{yc} = 1000(h_K - h_H) / \sum l_i \quad (1.1)$$

yoki

$$i_{yc} = \sum l_i i_i / \sum l_i \quad (1.2)$$

Bunda h_K va h_H — to'g'ri lanadigan uchastkaning tugash va boshlanish belgisi; i_i va l_i — qiyalik (%) va uzunlik (m) profilning har bir elementi shartli o'zgartirilgan. SHartli profil formulasi (1.1)- va (1.2)- kattaligi va bir xil belgi jixatidan yaqin profil elementlarini o'zgartirish mumkin. O'zgartirish shartlari imkonlarini quyidagicha yozish mumkin:

$$l_i \geq 2000 / \Delta i$$

Bunda Δi — shartli profil orasidagi absolyut farq belgisi i_{yc} va uchastkaning asl qiyaligi. Karyer yo'llari o'tish egriligi bo'lmagan bo'ylama profil elementlar bog'liqligi qiyalikning aralash farqlarini elementlarini $\leq 8 \div 9$ % bo'lishini ta'minlaydi. Vertikal egri radius 2000 m ga teng deb qabul qilinadi. Egri chiziqqli uchastka profili uzunligi l_R ni qo'shimcha ko'tarish bilan o'zgartirish mumkin, i_d shartli profil uzunligi $\sum l_i$ qarshilik kuchining egri va qo'shimcha qiyalik ishi tengligiga asosan $w_R l_R = i_d \sum l_i$ bo'ladi, bunda w_R — egri qiyalikdan qo'shimcha

qarshilik, N/kN. Bunda qo'shimcha qiyalik $i_0 = w_R l_R / \Sigma l_i$ ni tashkil etadi.

To'g'rilanadigan qiyalikda bir necha egri uchastkalarining borligi to'liq qiyalikning kattaligini ni tashkil qiladi,

$$i_{yc}^{non} = i_{yc}^1 + i_n^1 + i_n^{11} + \dots + i_n^n \quad (1.3)$$

Bunda i_n^1 va i_n^{11} — birinchi va ikkinchi egri chiziqli uchastkalarining qo'shimcha ko'tarilishi. SHartli profil asl profilga xos belgilarni saqlab qolishi shart. Shu sababli Karyer yo'l profilini bir-biridan katta farq qiluvchi (transheyada, notekis yo'llarda, yig'ish joyiga kirish yo'li va uning o'zida, tekislikdagi) bir necha elementlardan tashkil topishini tasavvur qilinadi. Bir necha notekis yoki yig'ish yo'llarida qiyalik kattaligini shartli notekis va yig'ish joyini o'rtacha o'lchamli (agar ular mazmuni yaqin bo'lsa) qilib olish mumkin. SHunday xolda o'rtacha o'lcham uzunligi notekis yo'lda L_y va yig'ish yo'lida L_o , shuningdek, karyerning chiqish (notekis) yo'llari uzunligi (i_c qiyalikda) L_c va ko'tarilish (i_o qiyalikda) yig'ish joyigacha L_{no} yuk oqimi hisoblari bilan aniqlanadi:

$$L_y = \Sigma Q_{iy} L_{iy} / \Sigma Q_{iy} \quad L_o = \Sigma Q_{io} L_{io} / \Sigma Q_{io}$$

$$L_c = \Sigma Q_{iy} H_{iy} / (i_c \Sigma Q_{iy}) \quad L_{no} = \Sigma Q_{io} H_{io} / \Sigma Q_{io}$$

Bunda ΣQ_{iy} , ΣQ_{io} — kon massasi hajmi, i -chi pog'onadan kelib tushadigan yoki i -chi kon massasini yig'ish joyiga, m^3 ; L_{iy} va L_{io} — o'rtacha uzunligi i -chi pog'ona yoki kon massasini yig'ish joyi yo'li, m ; H_{iy} va H_{io} — ko'tarilish balandligi i -chi karyer pog'ona yo'lidan yoki kon massasini yig'ish joyiga, m .

1.2 .Rudali transport mashinalari haqida ma'lumotlar

1.2.1. Transport mashinalariga qo'yilgan talablar va ularni ishlatish sharoitlari

Yer osti transportlarining aloxida ishlash joylari bor:

- tog' qazilmalarining chegaralangan ish joyining bo'lishi;
- Yuklash punktlarining kon ishlari fronti izidan joylashtirilishi, siljitish, qayta mantajlashni, qurilmalarning transport kommunikatsiyasining qisqartirilishi yoki uzaytirilishi talab qilinishi;

- Shaxta atmosferasining namligi va changlanishining oshishi;
- Shaxta suvlarining kimyoviy faolligining oshishi;
- rudali atmosfera portlashi xavfining oshishi;

Mustaxkamligi va chidamliligi Yuqori bo'lgan, oson qayta montaj qilinadigan, o'lchami oson o'zgartiriladigan transport mashinalarining, kichik o'lchamli jihozlar

Shaxtada qo'llanishi va shunday aloxida belgilarni talab etadi.

1.2.2. Rudali transportlarning turlarga ajratilishi va qo'llanishi.

Yer osti transportlarining asosiy vazifasi foydali qazilmani kondan Shaxta tepaligida Yuklash punktigacha ko'chirish. Bundan tashqari transport mashinalari tizmani yig'ish joyiga ko'chirish, zaxira materiallarini uzatish, mashina jihozlarni konga, extiyot qismlarni, mustaxkam zichlash va boshqa materiallarni yetqazib berishda, shuningdek, odamlarni ish o'rniga uzatish va teskari holatlarga xizmat qiladi. Ishga tushirish va maxsus sharotlarining ko'p jixatligi tufayli transport mashinalariga bo'lgan talablar Shaxtada har xil turdagi ko'p sonli, bir-biridan harakatlanish pritsipi bo'yicha, tashish turi, Yuk olib borishi va tortish qismi tipi bilan, quvvat sarflash turi, tuzilishdagi aloxida belgilari va boshqa xususiyatlari jixatidan farqlanuvchi transport vositalari qo'llaniladi. Harakatlanish jixatidan transport vositasini uzliksiz va ketma-ket harakatlanuvchi qurilmalarga ajratiladi. Uzluksiz harakatlanuvchi qurilmalar Yukni uzluksiz oqim bilan ko'chirib beradi (konveerlar, suv va havo transportlar qurilmasi, ulangan tortuvchi arqonli qurilma, tebranuvchi qurilma va boshqa). Ketma-ket harakatlanuvchi transport mashinalar aniq ifodalangan ish ketma-ketligiga ega: Yuklash, Yuk bilan harakatlanish, Yukni to'kish, bo'sh xolda harakatlanish, bajariladigan operatsiyalar qo'llanishi har xilligi (lokomativlar, skreperlar, uzi yurar vagonlar, Yuklovchi transport mashinalari, va boshqalar).

- sudraluvchi (sidirgichli konveerlar, skreperlar i dr.);
- sirpanuvchi (tebranuvchi qurilmalar va x.k.);
- mayda uloqtiruvchi (tebranma konveerlar);
- tashuvchi (lentali konveerlar, vagonchali x.k.);
- havoli (siqilgan havoli transport) yoki suvli (suvlitransport) muhit. Tortuvchi qismli transport vositasi qurilmalarga ajratiladi:
- tortuvchi zanjirli (sidirgichli konveerlar, elevatorlar, siltovchi va x.k);
- lentali (lentali konveerlar, elevatorlar va x.k)
- arqonli (skreperlar, keti arqonli va to'xtovsiz chiqaruvchi, arqon tortgichli bir relsli yo'l (monorelsovyie), arqonli osma yo'l va x.k.);
- g'ildirakli (lokomotivlar, uzi yurar vagonlar, Yuklovchi va Yuklovchi transport mashinalari)
- yurg'alovchi tortgich elementli (traktorlar, buldozerlar, Yuklovchi mashinalar va x.k.), shuningdek, tortgich elementsiz (tebranuvchi va arg'imchokli konveerlar va oziqlantiruvchilar, suvli-havoli transportli qurilmalar va boyituvchi (gravitatsion) transportli qurilmalar).

Transport vositalarini yangi joyga ko'chirmasdan olib borilgan ish davomiyligi bo'yicha transportlarni statsionar – 1,5 yildan ziyod (kapital qazib olishda ishlaydigan

lentali koveyyerlar, suvli transportli va arqonli qurilmalar, Yuklash punkti jihozlari va transport jihozlari, yarimstatsionar—1,5 yilgacha (teleskopik va boshqa konveerlar, monorelsli yo'llar va boshqalar); ko'chiriladigan — 15 sut. (ko'chirib Yuklovchilar, kon konveerlar) va boshqalar.

Ko'mir Shaxtalarida yer osti transportining asosiy turiga lokomotivli va konveerli, ba'zan – gidravlik va boyituvchi (gravitatsion) transportlari kiradi; qora va rangli metallar Shaxtalarida, kon-kimyoviy xom ashyo va qurilish materiallarni - lokomotivli, uziyurar, skreperli va gravitatsion turlari kiradi. Kon korxonasi yer osti chegaralarida ishlovchi transportlarni ichki deyiladi. Foydali qazilmani Shaxtadan chiqarib berishni va jihozlarni, har xil materiallarni Shaxtaga yetqazib berishni ta'minlovchilar - tashqi transportdir.

Ichki transportlarni ish joyiga qarab qazuvchi, uchastkada ishlovchi, magistral, Shaxta atrofi va Shaxta qiyaligidagi transport turlariga bo'linadi. Tashqi transport— Shaxtadan to Yuklash punktigacha tashqi transport turidan (mahsulotni iste'molchiga tukib berish); omborgacha , tizma yig'ish joyigacha va boshqalar kiradi. Shaxtaning tashqarisida transportning hamma turi ishlatiladi, boshqalariga qaraganda ko'proq— konveerli, avtomobil va gravitatsion. Tashqi transport sifatida asosan temir yo'l transportlari qo'llaniladi. Tog' massasini konda, kondan konveerlar orqali ko'chirib o'tilishi yyetqazib berish deyiladi, rels yo'li bo'ylab vagonchalarda (vagonetka) qiyalik burchagi 0 dan 30 gacha — chiqarish, vagonetkalarda va skiplarda rels yo'llari bo'ylab qiyalik burchagi 30° va koveyyerlarda qiyali (qiyalik burchagiga karamay) Shaxta orqali — ko'tarish bilan yetqazib byeriladi. Asosiy transportlarning ilg'or turi deb konveerli, Yukni uzluksiz, oqim bilan qo'l mexnatining minimal sarflanishini va oson avtomatlashtirilishini ta'minlovchi gidravlik turlarini hisoblash mumkin. Bu uzluksiz transport turlarning samaradorligi chegaralanmagan. Yuqorida nomlangan barcha transport vositasi turlari va yordamchi jihozlar tuzilishi jixatidan juda ko'p sonli turlarga, ishlatilishi sharoitlari jixatidan ham turlicha bo'ladi.

1.2.3. Transort sxemalari va majmualari.

Shaxta transport majmuasi sifatida transport mashinalarini birlashtiruvchi, qurilma va yordamchi jihozlar (Yuklash-to'kish, qayta Yuklash, dispechyerlashtirish va avtomatlashtirish sistema) va foydali qazilmani, zaxira materiallarni, tizmalarni, berilgan yunalish bo'ylab aniq transport tarmog'ida yordamchi Yuklarni ko'chirishga mo'ljallangan boshqariladigan sistemani tushunish mumkin. Transport vositalarining joylashishiga qarab ajratish mumkin:

- Qazilgan uyum panelida va uchastkasi tashqarisida joylashgan gorizonta, qiyalik va vertikal qazib olishda ishlaydigan uchastka transport majmuasi, foydali qazilmalarni tozalash konlaridan to shaxtaning asosiy ko'rinishigacha, foydali

qazilma va tizmalarni yoki faqat tizmani tayyorgarlik konlaridan to asosiy joygacha (gorizontgacha), jihozlarni va yordamchi Yuklarni tozalash konlariga va konlarni tayyorloviga va odamlarni tashishga mo'ljallangan;

- asosiy yunalishli (magistral) — asosiy gorizontal va kapital qiyaliklar qazilmalarida joylashgan, foydali qazilmalarni va tizmalarni uchastka transport majmuasidan shaxta yaqini xovlisigacha tashishga, yordamchi Yuklarni va odamlarni shaxta yaqini xovlisidan qazish uchastkalarigacha tashishga mo'ljallangan;

- Shaxta yaqini xovlisi transport majmualari — foydali qazilmani va tizmani qabul qilish va ularni ko'tarish vositalariga qayta Yuklash, shuningdek, yordamchi Yuklarni Yuqori qatlamdan va kon yunalishidan qabul qilib olish;

- Shaxta sathidagi transport majmualar – foydali qazilmalarni transportda tashish uchun va qazilmalarni shaxta yo'lidan tashqi transport vositalarigacha yoki saqlash joyigacha (foydali qazilmalar omborxonasi, qazilmalar yig'ilish joyi);

- Shaxta sathidagi zaxira materialarini shaxtadagi maxsus zaxira saqlash joyigacha transportda tashishga mo'ljallangan majmualar.

Transport sxemalari deganda, ishlab chiqarilgan barcha transport sxemalari va boshqa transport kommunikatsiyalarini tushunamiz, ularda qo'llanadigan transport jihozlarining turi va nimaga mo'ljallanganligi ko'rsatiladi. Shaxtalarda kon-texnik sharoitlar har -xil bo'lganligi tufayli, yer osti transportlar sxemalarini xilma-xil ko'rinishda qo'llanish tavsiya etiladi. Ishlatiladigan asosiy transport turi va soniga qarab oddiy va aralash sxema transportlariga ajratiladi. Oddiy sxemalarga suvli transport, konveerli, lokomotiv transporti sxemalari kiradi. Aralash sxemalarga shaxta transportlaridan bir necha asosiy transport turlarining qo'llanishi kiradi. Masalan, o'zi yurar yoki konveerli, lokomotivli - magistralda, gravitatsiyali – qiyali va vertikal holatlarda ishlaganda, konveerli – magistrallarda va x. k.

1.2.4. Yuk aylanishi va Yuk oqimi

Yuk aylanishi – Yuk hajmi tonnada yoki kub metrda, bir yil yoki sutkada korxona ichida harakatlanishidir. Shaxtalarda Yuk aylanishning katta qismini foydali qazilmalar, kichik qismini-foydasiz qazilmalar, zaxira mahsulotlari va xo'jalik-texnik Yuklari tashkil qiladi.

Yuk aylanishi orqali shaxtaning loyihaviy quvvati aniqlanadi va kon ishlarining rivojlanish darajasiga qarab davriy o'zgarib turadi. Ko'mir shaxtalarida texnologik loyihalash normalari asosida quyidagi qator quvvat turlari o'rnatilgan: 6000, 8000, 10 000, 12 000, 15 000, 20 000 va 25 000 t/sut va x.o. Qulay kon-geologik sharoitlarda juda katta zaxiraga ega bo'lgan uchastkalarda va ancha katta bo'lgan Shaxtalarni loyihalash ko'zda tutilgan. Aloxida holatlarda, tansiq rsumli ko'mir zaxiralari aytarli bo'lmagan Shaxtalarda (asoslab berish to'g'ri kelganda) 6000 t/sut quvvat yo'lga

qo'yiladi. Qora metallurgiya ruda konlarida quvvat 1000 dan 10 000 t/sut gacha, ranglida – 500 dan 4000 t/sut gacha bo'ladi.

Zamonaviy shaxtalarda Yuk aylanish kattaligi to'xtovsiz oshib bormoqda. Transportlarning shaxtadagi ish hajmi Yuk aylanishi va transportlashtirish masofasi bilan aniqlanadi. Yuk aylanishi deb Yuk miqdorining tonnada yoki kub metrda vaqt birligida (smenada, soatda, minutda) aniq trassa bo'ylab joylashtirilishiga aytiladi. Yuk oqimining bir me'yorda bo'lmashligi me'yorsizlik koeffitsienti k_H bilan belgilanadi va texnik, texnologik, tashkiliy va boshqa faktorlari bilan keng miqdorda o'zgarib turadi va statistik ko'rsatkichlar asosida saralanadi yoki hisob kitoblarda aniqlanadi. Eng katta me'yorsiz tayyorgarlik qazish joyidagi Yuk oqimi bilan va qazuvchi uchastkalarda xarakterlanadi, eng kam — magistral qazib olishda va yaqin shaxta xovlilaridadir. Soatbay Yuk oqimi kattaligi magistral qazib olishda ko'mir shaxtalarida 4000 t ga yetadi, ruda konlarida esa - 6500t.va qo'llanishda transport vositalarini turlicha (ishlab chiqarish bo'yicha) qo'llashni talab etadi. Transport vositalarini tanlash bunday kattalikdagi Yuk oqimi (ishlab chiqarishda) sharoitida maksimal ishlash bajariladi va bunday hollarda hisoblangan (Q_p t/ch, t/min) deyiladi.

1.3.Yuklarning fizik-mexanik xususiyatlari

Transport mashinalarini tanlash va ishlatishning ishonchli bo'lishi uchun asosiy jixatlaridan biri Yuklarning fiziko-mexanikaviy xususiyatlari hisoblanadi. Asosiy Yuklarga hamda qoidaga asosan, sepiluvchan Yuklar, ya'ni sochilib Yuklanadigan (foydali qazilmalar, shaxtadagi tizmalar, karyerlardagi olib tashlanuvchi qatlam tizmasi) Yuklariga kiradi. Yordamchi Yuklarning katta qismini (jihozlar va x.k.) donabay Yuk sifatida turlarga ajratish mumkin. Idishlarda tashiluvchi sochma Yuklar ham donabay hisoblanadi. Donali Yuklar kattaligi va vazni bilan tariflanadi. Sepiluvchan tog' tizmasi tashishning samarali bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi xossalariining turlichaligi bilan ajralib turadi: bo'lakli, mustaxkamlik, qattiqlik, zichlik, Dag'allik, namlik, chang chikaruvchanlik, yonuvchanlik, tabiiy burchak qiyaligi hamda iz qoldiruvchanligi va boshqalar kiradi. Bo'linuvchanligi yoki granulometrik tarkibi tog' tizmasidagi har xil kattalikdagi bo'laklarning soni jixatidan alohida xususiyatga ega. Bo'laklarning kattaligi uch o'zaro perpendikulyar yunalishlarda o'lchab olish bilan aniqlanadi, yana eng katta bo'lakning o'lchami shartli ravishda uning uzunligi deb qabul qilinadi (a^1). Agar maydalangan tizmaning maksimal o'lchamdagi bo'lagining o'lchami a^1_{max} eng minimalga a^1_{min} nisbatan 2,5 ga teng yoki ko'proq bo'lsa va ajratganda $a^1_{max}/a^1_{min} \leq 2,5$ bo'lsa unda Yuklar oddiylarga ajratiladi. Oddiy Yuklarni shunday o'lchamdagi bo'laklar orqali xarakterlash mumkin. Agar oddiy Yuklarda 10 % kam (tizmada) uzunligi a^1_{max} dan

$0,8a_{\max}^I$ gacha bo'lgan uzunlikdagi bo'laklar bo'lsa o'rta deyiladi. Saralangan Yuklar uchun o'xshash Yuklarga uzunligi $a_{cp}^I = (a_{\max}^I + a_{\min}^I)/2$ bo'lgan o'rta o'lchamli bo'laklar hisoblanadi. Tizmalar, ko'mir, va rudadan tashqari, boshqa sochma Yuklar uchun bo'laklarning yirikligi bo'yicha quyidagi gradatsiya qabul qilindi: changsimon- 0,05 mm, kukunsimon—0,05-0,5 mm; donsimon – 0,5 – 40 mm; mayda bo'lakli –10-60 mm; o'rta bo'lakli 60-160 mm ; yirik bo'lakli 160 - 320 mm dan katta bo'lmagan. Ruda bo'laklarini aniqlashda bo'laklarning yirikligi bo'yicha boshqa gradatsiya mavjud: ruda maydachalari – 100 mm; o'rta bo'lakli – 100 - 300 mm; yirik bo'lakli – 300 - 600 mm; juda yirik – 600 mm dan kattaroq. Ekskovator va transport-Yuklovchi mashinalar kovshiga erkin joylashadigan eng katta o'lchamli bo'lak qayta Yuklash punktlaridan va qazilmalargacha belgilangan yo'llardan o'tuvchanligi, transport mashinalari ishchi organlariga joylasha olishi gabaritli yoki konditsion (400—600 mm) deyiladi, katta o'lchamdagilarni esa gabaritsiz deyiladi. Katta miqdordagi gabaritsiz Yuk juda yirik bo'lakli deb ataladi. Ko'chiriladigan Yuk uchun bo'laklanishi jixatiga qarab transport mashinalari turi, Yuk tashuvchi organining o'lchamiga va transport mashinalarining gabaritiga qarab tanlanadi. Yukning zichligi Yuk vaznining egallaydigan joy hajmiga nisbatan belgilanadi, ya'ni vazni joy hajmi birligiga (τ/m^3), tog' tizmasining zichligi yoki tog' massivida (ya'ni, tabiiy holatda) τ bilan belgilanadi, yumshatilgan xolda esa (sochiluvchanlikdagi zichligi) τ_p (m^3). Bu ikki o'lcham nisbati τ/τ_p da har doim 1 dan katta, yumshatish koeffitsientini K_p aniqlaydi.

Yumshatish koeffitsienti tog' massasining yumshatish hajmining massiv hajmiga nisbatan oshishiga tushuniladi. Ruda va mustaxkam tizmalar uchun — $K_p=1,4\div1,8$, yumshok tizmalar - $K_p=1,2\div1,3$ ga teng hisoblanadi. Tog' massasining yumshatish koeffitsienti bir necha faktorlardan: tog' tizmalarni yumshatish usullari (qazib portlatuvchi yoki mexanik), Yuklash va ko'chirib utqazish usullari bilan omillarga bo'linadi. Hisoblashni odatda transport idishidagi yumshatishning o'rta koeffitsient belgilaridan foydalaniladi. Zichligi $\tau(\text{m}^3)$ jixatdan hamma Yuklar quyidagilarga ajratiladi:

Engil.....	1,0—2,0
O'rta.....	2,0—2,5
Og'ir.....	2,5—3,0
Juda Og'ir	3,0—4,0

Tog' tizmasining sochma zichligi transport mashinalarining samaradorligini aniqlashda va tortishni hisoblashdagi bajarishda inobatga olinadi. Sochma Yuk tabiiy qiyalik burchagi burchak deb ataladi. Burchak, sochma massa tinadigan gorizontal tekislik bilan yon tomon yuzasidagi bo'sh sochma massasidan hosil bo'ladi.

Transport mashinalari harakatlanishida sochma Yukka tebranish va silkinishlar ta'sir etadi va bo'lakchalarning qimirlash natijasida ko'chishini oshirib boradi. SHu

sababli, tinganda tabiiy burchak qiyaligi (p^1), harakatlanganda (p), unda $p < p^1$, ular orasidagi bog'liklik $p = (0,5 \div 0,7)p^1$ ga nisbatan ifodalanishi bilan farqlanadi. Tabiiy burchak qiyalik kattaligi p^1 tog' massasining bo'linganligiga, namligiga va boshqa xislatlariga bog'liq. Masalan yumshoq olib tashlanadigan yuzaki qatlam tizmalari uchun $p = 15 \div 20^0$, qora va rangli metallar rudalari uchun $p = 30 \div 35^0$.

Tabiiy burchak qiyaligi kattaligi bo'yicha harakatlangan vaqtda kundalang kesishish maydoni aniqlanadi yoki transport qurilmalaridagi Yuk tashuvchi qurilmasiga tashiladi.

SHuningdek, sochma Yukning tuqilishida hosil bo'ladigan konussimon tushishda (bunkerda) va gorizontall tekislik orasida hosil bo'ladigan tuqilish burchagi ($p_{огр}$) ham farqlanadi. Tog' massasining ichki ishqalanishi deb tabiiy burchak qiyaligi tangensiga aytiladi. Tog' tizmalarining mustaxkamligi prof. M.M. Protodyakonovning mustaxkamlik shkalasi koeffitsienti: $f = 10^{-7} \sigma_{сж}$ bo'yicha baxolanadi, bunda $\sigma_{сж}$ — tog' tizmasining qisilgandagi mustaxkamligi - Pa.

Tog' tizmasi mustaxkamligi va zichlik orasida bog'liqlik mavjud: mustaxkamlik qancha Yuqori bo'lsa, zichlik ham Yuqori bo'ladi (1.1 tab.).

Dag'allik — tog' massasining Yuklash, tashish, va bo'shatish jarayonida o'ziga ta'sir etuvchi yuzaga nisbatan yaroqsizlanishi, eyilishi (Yuklovchi quvurlar, vagonlar va avtomobillar kuzovi, konveer lentalar va x.k.) Tashiladigan tog' tizmalari dag'alligi bo'yicha to'rt guruxga ajratiladi: A — dag'al bo'lmagan (tog' sanoatida yo'k); V — mapoabraziv (xul, loy, ko'mir, graviy); S — o'rtacha dag'al (qum, antratsit); D — Yuqori dag'al (ruda, boksitlar). Dag'allik guruxiga ajratish tog' massasining o'lchamiga, mustaxkamligiga va shakliga bog'liq. Qattiq rudalar, uta qattiq rudalar va olinadigan ustki qatlam uta dag'al hisoblanadi. Bundaylarni tashishda Yuk oladigan va boshqa ruda transporti vositasi elementlari tez ishdan chiqishga moyil o'rta va Yuqori dag'al sochma Yuklarni tashishda qo'llaniladigan transport mashinalarini tanlashda va ishlatishda yaroqsizlanishini kamaytirish

choralarini Yuk oluvchi elementlar uchun materiallarni tanlab olish, ximoyalovchi futyerovalarni ishlatish va mashinalar ishlash tartibini optimal tanlashni taqozo qiladi. (1.1 tab.)

Namlik — tashiladigan materialda suvning mavjudligi uni ko'ritish shkaflarida oldindan ulchangan qismini $+105^{\circ}$ temperaturada 4 soat davomida ko'ritilib aniqlanadi va protsentlarda ifodalanadi:

$$\omega = 100(m_1 - m_2)/m_2$$

Bunda m_1 va m_2 — Yukning o'lchangan qismi ko'ringunga va ko'rishdan keyin bo'lgan vazni. Nam tog' massasi bir necha vaqt harakat siz turib zichligi va birikuvchanligi oshadi. Nam tog' massasida loy qismchalarining bo'lishi uni yanada

birikuvchanligini va yopishkokligini oshiradi.

Suglinkali	1,6	1,2	35	4
Qum:				
ko'ruk	1,4—1,65	1,15	30—35	—
Nam	1,9	1,1	30	—
Ko'mirli	1,7—1,8	1,12	38—40	—
Slanslar oxakli	1,9—2,0	1,6	40—45	4,8
Qumli				
Tosh tizmalari	1,8—2,0	1,6	40—45	7,0—15

Sochma Yuklarning asosiy xarakteristikasi

Antratsit ko'ruk mayda bo'lakli	0,8 — 0,95	1,4	45	2,3
Tosh bo'lakli ko'mir oddiy	0,8—0,95	1,4	30—45	2
To'q qo'ng'ir	0,85—1,0	1,3	27—30	2,5
Koks o'rta bo'lakli	0,48—0,53	1,3	35—50	1,5
Torf bo'lakli, quruq	0,33—0,5	1,4	32—45	1,3
Temir rudasi:				
Qizil temir	2,0—2,8	1,4—1,6	45—50	14—16
Ko'ng'ir temir	1,2—2,0	1,4—1,6	45—50	14—16
Magnitli temir	2,5—3,5	1,4—1,6	45—50	14—16
Margans rudasi	1,4-2,0	1,3	40—45	3
Mayda bo'lakli oxak	1,2—1,5	1,3	40—45	2,8
Loy:				
ko'mirli	1,2—1,3	1,6	27—30	2,8
Yer gelistli	1,5	1,2	32—35	3,5
Zich	1,6	1,2	32—35	4
Kulrang	1,9	1,2	38—40	4,5

1.4. Transport mashinalarining asosiy hisob-kitob nazariyasi

1.4.1. Samaradorlik

Samaradorlik deganda vaqt birligida tashilgan Yuk soniga aytiladi. Yuk soni birligi tonna (t) yoki kub metr (m^3), vaqt birligi esa — soat (s), shunga ko'ra samaradorlik vazn birligida Q (t/s) yoki hajm birligida V (m^3/s) ifodalanadi. Vazn bo'yicha samaradorlik va hajm bo'yicha samaradorlik orasidagi bog'liqlik $Q=V\rho$, da aniqlanadi, bunda ρ — tashiladigan Yukning sochma zichligi. Ochiq tog' ishlarida

foydali qazilmalarning joylashish soni tonnalarida ifodalanadi, ustki olinadigan qatlam tizmalari – kub metrlarda . Transport mashinalari samaradorligi ularning tuzilish ulchov birliklari bilan aniqlanib qolmay, balki joylashadigan yukning fizik-mexanik xususiyatlari, ishga tushirishning texnologik va tashkiliy sharoitlari bilan aniqlanadi. Samaradorlik nazariy yoki pasportli (mashina pasportida ko'rsatiladi) bo'ladi, mashinaning uzluksiz to'liq og'irlikda ishlashi bilan aniqlanadi. Ketma-ket harakatlanuvchi mashinalari uchun nazariy samaradorlik $Q_{u.nazar}$ (t/s) yoki $V_{u.nazar}$ (m^3/s) mashinaning yuk ko'tarishiga G (t) mos aniqlanadi (eng ko'p yuk vaznini tashishga yo'l qo'yiladigan vosita vagonlar, avtosamasval kuzovlari va boshqalar) yoki uning sig'imi (joylashishi) V_m (m^3) va reyslarning davomiyligi (ketma-ketlik) T_p (s, min, ch). shunday qilib reyslarning davomiyligini soatlarda hisoblash, masalan quyidagicha yozish mumkin:

$$Q_{u.nazar} = G/T_p, \text{ t/s, va } V_{u.nazar} = V_m/T_p \text{ m}^3/\text{s} \quad (1.4)$$

Transport mashinalarining reys davomiyligi T_p (ketma-ket) yuklashga sarflangan vaqtda aniqlanadi (t_{yuk}), yuk bilan harakatlanishi (t_{yuk}), bo'shatishga ($t_{bo'sh}$), bo'sh xoldagi harakat ilanishiga ($t_{bo'sh.har}$) va holatni o'zgartirish harakatlari ($t_{o'zgar}$):

$$T_p = t_{yuk} + t_{yuk.har} + t_{bo'sh} + t_{bo'sh.har} + t_{o'zgar} \quad (1.5)$$

Uzluksiz harakatlanuvchi mashinalar uchun nazariy samaradorlik $Q_{u.nazar}$ (t/s) yoki $V_{u.nazar}$ (m^3/s) yo'lining og'irligiga nisbatan aniqlanadi q (N/m) yoki v (m/s) tezligida harakatlanuvchi transport yuk olish organida F_u (m^2) yukning maksimal ko'ndalang kesishish maydoni yo'l chizig'i bo'ylab joylashishi bilan aniqlanadi. Shunday qilib,

$$Q_{u.nazar} = 3,6qv/g \text{ yoki } V_{u.nazar} = 3600F_nv \quad (1.6)$$

Yer osti lentali konverlarning daqiqaviy nazariy samaradorlik deb qabul qilish mumkin, ya'ni harakatlanib turgan konveer lentasining daqiqa ichida maksimal hajmdagi tog' tizmasini qabul qila olishi (t/daq yoki m^3/daq).

Amaldagi ishlash sharoitlarda texnik va ish samaradorligi belgilaridan foydalaniladi. Texnik ishlab chiqarish transport mashinalarini nominal tartibda ishlashiga konstruktiv imkoniyatlarini to'liq ishlatgan xolda mos keladi. Uning kattaligi doimiy emas va uzatma quvvatiga qarab o'rnatiladi, tortuvchi elimentlari mustaxkamligiga va ishlatish sharoitlariga bog'liq (uzunligi va qiya burchagi) bo'ladi. Texnik ishlab chiqarilishi har doim nazariy ko'rsatkichdan kam va undan transport vositalarini tanlashda foydalaniladi.

Ketma-ket harakatlanadigan transport mashinalariga quyidagicha topiladi:


$$Q_{u,lex} = GK_q / T_p \text{ yoki } V_{u,lex} = V_m K_v / T_p \quad (1.7)$$

Bunda K_q va K_v — mashinalar yuk ko'tarish ko'effitsientiga to'g'ri va yuk tashuvchi organlariga yuk ketishi; T_p^1 — ketma-ket harakatlanish vaqti zarur texnologik to'xtashlarni hisobga olgan holda (masalan, ekskavator yonida transport vositalarini almashish vaqti yoki yuklaydigan mashinalar va x. k.).

Uzluksiz harakatlanadigan mashinalar uchun:

$$Q_{u,lex} = 3600 F_0 k_\psi k_\beta v, \text{ t/s, yoki } V_{u,lex} = 3600 F_0 k_\psi k_\beta v, \text{ m}^3/\text{s} \quad (1.8)$$

Bunda k_ψ — ko'effitsienti, yuk tashuvchi organini geometrik uzulish darajasini tuldirlishligini hisobga olinishi, shuningdek $k_\psi = F/F_0$; F — yuk tashuvchi organida, yukning deyarli yonbosh uzulish maydoni, m^2 ; F_0 - Yuk tashuvchi organida yukning maksimal darajada yonbosh uzulish maydoni, Yuk tarkibiga va uning parametrlariga keladigan, m^2 ; k_β — ko'effitsienti, uzluksiz ishlaydigan ishlab chiqaruvchi mashinalarni qiya burchagi o'rnatilishidan o'zgarishini hisobga oluvchi; v — tortish organining harakatlanish tezligi, m/s . 1.2 rasm. uzluksiz harakatlanuvchi va ketma ket harakatlanuvchi transport mashinalarini unumdorlik grafik o'zgarishi ko'rsatilgan, bundan ko'rinadiki, davriy harakatlanuvchi transport mashinalarining transportda tashish qilish uzunligi oshishi bilan samaradorlik kamayadi, uzluksiz ishlaydigan mashinalarning unumdorligi esa transportda tashish qilish uzunligiga bog'liq emas.



Rasm 1.2 Transport mashinalarining samaradorlikka bog'liqligi

Q ko'chirish masofasining uzunligiga bog'liqdir L davriy(1) va uzluksiz(2) harakatlanuvchi mashinalar uchun.

Uzluksiz harakatlanadigan Shaxta arqon otkatlari va arqon yo'llari osilishi uchun, u yerda Yuk vagonetkalarda harakatlanadi, vagonetkalar Yuk ko'tara olish vazni G (kg), tortish a'zosiga aniq intervalda (m) birlashtirilgan, yo'l og'irligi $q = Gg/l$ (N/m) bo'ladi, samaradorlik esa - (t/s)

$$Q_{u\text{ tex}} = 36Gv/l = 36G/t$$

Bunda $t=l/v$ — trassaga Yuklangan vagonetkalmi yetqazib berishda vaqtlar orasidagi uzilish. Ishlatilishning samaradoaligi Q_{eksp} — transport mashinalarining Yuklash jarayonining tezligini, texnik, tashkiliy sabablarga ko'ra to'xtashlarini hisobga olgan xoldagi o'qli samaradorligi. Odatda ancha uzoq bo'lgan vaqt davrida olinadi (t/yil , m^3/yil , $t/\text{oy.}$, m^3/oy ; t/sut , m^3/sut ; t/smena , m^3/smena) va mashinaning ishonchli ishlashi hisobida baxolanadi. SHunday qilib, mashinalarning ishga ishlatilish samaradorligi yillik hisobda quyidagicha topiladi:

$$Q_{\text{eksp}} = Q_{\text{tex}} T_{\text{ishchi}} k_t \quad \text{yoki} \quad V_{\text{eksp}} = V_{\text{tex}} T_{\text{ishchi}} k_t \quad (1.9)$$


Bunda T_{ishchi} — transport mashinalari ishlash davomiyligi; k_t — har qanday kelib chikadigan nosozliklar bo'lganda tez sozlanish extimoli ko'zda tutilgan xoldagi transport mashinalarining ishga tayyorgarligi.

1.4.2. Mashinaga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar.

Transport mashinalainig ishlash davrida ularga ikki turdagi kuchlar ta'sir ko'rsatadi. Harakat ga ko'rsatilgan qarshilik W (N), har qaysi turdagi mashinalar uchun, qoidaga ko'ra boshqarib bo'lmaydigan tashqi ta'sirlar mavjud bo'lsada, har doim mashinaga tushgan og'irlik Yukiga, ish tartibiga, harakatlanadigan tarassaning xususiyatlariga (qiyaliklarning katta-kichikligiga, egri-notekislik uchastkalarga) va harakat tezligiga bog'liq. Ketma-ket harakatlanuvchi transport mashinalarining asosiy (W_o) va qo'shimcha (W_n) harakat qarshiligi mavjud. Qo'shimcha qarshilik o'z ichiga oladi: qiyalikdan kelib chiqqan qarshilik (W_i), trassaning yeri chiziq uchastkalaridan qarshiligi (W_R), havo muhitining qarshiligi ($W_{\text{muh qar}}$). Shunday qilib, to'liq qarshilik quyidagicha topiladi:

$$W = W_o + W_n = W_o \pm W_i + W_R + W_{\text{muh qar}} \quad (1.10)$$

Yuqorida aytilgan barcha qarshiliklar transport mashinalarining harakatlanishi tartibiga bog'liq emas (tezlashish yoki sekinlashish), shu sababli ularni statistik qarshilik deb nomlaymiz.



Rasm 1.3. Harakatga qarshilikni aniqlash sxemasi.

Transport mashinalarining harakatlanishida mashinaning og'irligi R (kN) qiyalik yo'l bo'ylab (ris. 1.3) odatdagi og'irlikga ega $P_{\cos\beta}$ harakat qarshiligini paydo qiladi.

$$W_o = P \cos \beta w = 1000 w M_T g \cos \beta \quad (1.11)$$

Bunda w — mashina harakatlanishiga qarshilik koeffitsienti; g — erkin tushish tezligi, m/s^2 ; β — gorizontdagi trassaning qiyalik burchagi.

Qarshilik W_o harakatlanish bo'lganda har doim paydo bo'ladi, shuning uchun u asosiy qarshilik deyiladi. Asosiy qarshilik o'z ichiga padshipnik, shamirlarda va boshqa ishqalanuvchi detallardagi, shuningdek, trassa elementlarining deformatsiyasidagi qarshilikning harakat vaqtida tashqi tayanchga g'ildiraklar tebranishidan ishqalanish paydo bo'lishini va boshqalarni o'z ichiga oladi. Asosiy qarshilik har doim transport mashinasining harakatlanish tomoniga qarama-qarshi tomondan hosil bo'ladi. Harakat qarshilik koeffitsienti qo'yyidagicha topiladi:

$$w = (df + 2k) / D$$

Bunda D — g'ildirak diametri; d — sapfalar o'z o'qi diametri, f — sapfalaridagi ishqalanish koeffitsienti; k — tebranish ishqalanish koeffitsient.

Ifodada (1.11) $1000w$ kattalikni harakatga asosiy belgilangan qarshilik, (w_o), chunki $[H/kH]$ o'lchamiga ega bo'lib, og'irligi $[kN]$ bo'lgan mashinaning kuchishdagi asosiy qarshilikni o'z ichiga olgan $[N]$. Ketma-ket harakatlanuvchi transport mashinalarining harakatlarini trassa qiyaliginingining maksimal burchagi $3-8^\circ$ (mashina turiga bog'liq), shu sababli ifoda (1.11) hisoblanadi, u $\cos\beta=1$, bo'lsa unda

$$W_o = P w_o = M_T g w_o \quad (1.12)$$

Asosiy belgilangan qarshilik (udelnoe) w_o bir necha omillarga bog'liq va

odatdagi o'xshash hisob - kitoblarni tuzish birmuncha murakkab, shu sababli sinovlar natijasida qo'lga kiritilgan ifodalardan foydalanish maqsadga muvoffikdir . Bo'sh xoldagi vazni $P \sin \beta$ (yoki $M_T g \sin \beta$) faqat trassada qiyaliklar bo'lganda hosil bo'ladi, ya'ni, $\beta \neq 0$ bo'lganda , shu sababli, kuchni qiyalikdan bo'lgan qo'shimcha qarshilik kuchi deb nomlanadi.

$$W_i = 1000 P \sin \beta = 1000 M_T g \sin \beta \quad (1.13)$$

